

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**SERTIFIKATLASHTIRISH TARTIBOTLARINI VA SIFAT MENEJMENTI  
TIZIMLARINI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA  
CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

Ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvardagi PQ-1464-son qarori bilan tasdiqlangan 2011 — 2015-yillar davrida O‘zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko‘lamini chuqurlashtirish va kengaytirish, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini shakllantirish mezonlarini va baholash tizimini belgilash va amalga oshirish chora-tadbirlari dasturini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1474-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda “O‘zstandart” agentligining:

2011-yil 1-maydan boshlab ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan sotilgan sertifikatlashtirilgan mahsulot hajmidan muvofiqlik belgilaridan foydalanganlik uchun sertifikatlashtirish organlariga doimiy litsenziya ajratmalarini to‘lash to‘g‘risidagi talablarni, ularning o‘rniga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan miqdordagi bir martalik to‘lovni joriy etgan holda, bekor qilish to‘g‘risidagi;

eksportga yetkazib berish uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlarini sertifikatlashtirishning ma‘lum qilish tartibini 2011-yil 1-maydan boshlab joriy etish to‘g‘risidagi;

xorijiy mamlakatlarning akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish yo‘li bilan chetdan keltirilayotgan texnologik uskunalar va ularning qismlarini sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirish to‘g‘risidagi takliflari qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-yanvardagi 43-sonli [qaroriga](#) asosan 2021-yil 1-maydan chiqariladi — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.02.2021-y., 09/21/43/0071-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-oktabrdagi 292-sonli [qaroriga](#) asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2015-y., 42-son, 534-modda)*

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan ma‘lum qilish tartibi to‘g‘risidagi [nizom 3](#)-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

3. Mahsulotlarni eksport qilishga ko‘maklashish byurosi (keyingi o‘rinlarda Byuro deb ataladi) tashkil etilsin.

*(3-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli [qarori](#) tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

Quyidagilar Byuroning asosiy vazifalari etib belgilansin:

eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga standartlar, sertifikatlashtirish, yorliqlash, qadoqlash va boshqa parametrlar bo‘yicha xalqaro va mamlakatlararo talablar yuzasidan bepul konsultatsiya xizmatlari ko‘rsatish;

ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda standartlar bo'yicha xalqaro va mamlakatlararo talablarni joriy etish va ular darajasiga erishish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha zarur ma'lumotlarni olish uchun ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga axborot-konsultatsiya yordami ko'rsatish;

standartlar, sertifikatlashtirish, mahsulotlarni yorliqlash, qadoqlash va boshqa parametrlar bo'yicha xalqaro va mamlakatlararo talablarning doimiy ravishda yangilab boriladigan ma'lumotnomasini ishlab chiqish va joriy etish, keyinchalik uni Internet tarmog'idagi "O'zstandart" agentligi saytiga joylashtirish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

5. Quyidagilar:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(5-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosining tuzilmasi 7-ilovaga muvofiq;  
*(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi to'g'risidagi nizom 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*(5-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

6. "O'zstandart" agentligi ikki oy muddatda:

"O'zstandart" agentligining mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi faoliyatini tashkil etsin, uni belgilangan tartibda joylashtirishni, tegishli soha bo'yicha malakali mutaxassislar va boshqa xodimlar, inventarlar va zarur texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda xalqaro va mamlakatlararo standartlar talablariga muvofiq bo'lgan sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqish va ishlab chiqaruvchi tashkilotlarda joriy etish bo'yicha namunaviy hujjatlarni tasdiqlasin hamda ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga ularning bepul taqdim etilishini ta'minlasin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 9-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari U.U. Rozuqulov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2011-yil 28-aprel,  
122-son

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-oktabrdagi 292-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2015-y., 42-son, 534-modda)*

## **O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan ma’lum qilish tartibi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va xavflilik toifasi past bo‘lgan, ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash tartibotlarini ishlab chiqaruvchi tomonidan ularning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligi haqida ma’lum qilish yo‘li bilan (keyingi o‘rinlarda muvofiqligini ma’lum qilish deb ataladi) belgilaydi va faqat ko‘rsatib o‘tilgan mahsulotni ishlab chiqaruvchiga nisbatan qo‘llanadi.

2. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning qonunchilik talablariga va mahsulotlar ularga muvofiq ishlab chiqarilgan normativ hujjatlarga muvofiqligini tasdiqlash uchun mahsulotni ishlab chiqaruvchi ushbu Nizomga **1-ilovaga** muvofiq shakl bo‘yicha muvofiqlik xabarnomasini to‘ldiradi.

3. Ishlab chiqarilgan mahsulotning muvofiqligi to‘g‘risidagi xabarnomani ishlab chiqaruvchining vakili “O‘zstandart” agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organiga (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish organi deb ataladi) ikki nusxada taqdim etadi.

4. Sertifikatlashtirish organi ishlab chiqarilgan mahsulotning muvofiqligi to‘g‘risidagi xabarnomani ushbu Nizomga **2-ilovaga** muvofiq shakl bo‘yicha daftarda ro‘yxatdan o‘tkazadi, ishlab chiqarilgan mahsulotning muvofiqligi to‘g‘risidagi xabarnomaga ro‘yxatdan o‘tkazish tartib raqamini qo‘yadi va uning sertifikatlashtirish organi muhri qo‘yilgan bir nusxasini mahsulot ishlab chiqaruvchining vakiliga beradi.

5. Ishlab chiqarilgan mahsulot muvofiqlik xabarnomasining amal qilish muddati muvofiqlik xabarnomasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanadan boshlab 3 yildan iborat bo‘ladi.

Muvofiqlik xabarnomasi ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng 3 yil o‘tgach mahsulotni ishlab chiqaruvchi sertifikatlashtirish organiga yangi xabarnomani taqdim etadi.

6. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning normativ hujjatlardagi talablarga uning sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ta‘sir qiluvchi o‘zgartirishlar kiritilsa muvofiqlik xabarnomasi qayta ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

7. Normativ hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab 10 kun mobaynida ishlab chiqaruvchi sertifikatlashtirish organiga muvofiqlik xabarnomasini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun murojaat qiladi.

8. Ishlab chiqarilgan mahsulotning muvofiqlik xabarnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish sertifikatlashtirish organi tomonidan bir ish kuni mobaynida, bepul amalga oshiriladi.

9. Ishlab chiqarilgan mahsulotning ro‘yxatdan o‘tkazilgan muvofiqlik xabarnomasi ushbu mahsulotni O‘zbekiston Respublikasi hududida sotish uchun asos hisoblanadi.

10. Eksportga yetkazib berish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

11. Sertifikatlashtirish organida ro‘yxatdan o‘tkazilgan muvofiqlik xabarnomasi ishlab chiqarilgan mahsulotning yo‘l hujjati uchun asos bo‘lishi mumkin.

*(11-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-avgustdagi 661-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.08.2019-y., 09/19/661/3571-son)*

12. Ishlab chiqarilgan mahsulotning xavfsizligi va sifat ko‘rsatkichlarining normativ hujjatlardagi majburiy talablarga muvofiqlik xabarnomasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning haqqoniyligi, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va xavfsizligiga nisbatan qo‘yiladigan normativ hujjatlarning majburiy talablariga rioya etilishini ta‘minlash yuzasidan ishlab chiqaruvchi korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan ma’lum qilish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**

*Oldingi tahrirga qarang.*

## MUVOFIQLIK XABARNOMASI

20\_\_ y. “\_\_” \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ da joylashgan

\_\_\_\_\_ nomidan

(tashkilotning to'liq nomi)

\_\_\_\_\_ (rahbarning F.I.O., lavozimi (bosh direktor, direktor, xususiy tadbirkor))

ushbu bilan xabar qiladiki, \_\_\_\_\_ bo'yicha

(normativ hujjat nomi, tartib raqami)

ishlab chiqarilayotgan \_\_\_\_\_

(mahsulotning nomi, turi, rusumi)

ko'rsatib o'tilgan hujjatning barcha talablariga, shuningdek \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ ga

(ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va xavfsizligiga nisbatan talablar belgilangan normativ hujjatlar va qoidalar nomi, tartib raqami)

to'liq muvofiq keladi.

Tashkilotda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni normativ hujjatlarda belgilangan barcha sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqarish va sinovlar o'tkazish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud.

\_\_\_\_\_ (agar tashkilot sinovlarni (yoki sinovlarning bir qismini) boshqa laboratoriyalarda o'tkazayotgan bo'lsa, ushbu laboratoriyalar ko'rsatilishi lozim)

\_\_\_\_\_ (sinov laboratoriyasining nomi, manzili, shuningdek uning akkreditatsiyadan (attestatsiyadan) o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatga (tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati) havola, agar laboratoriya ushbu tartibotlardan o'tgan bo'lsa)

Tashkilot sifatli va xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish uchun barcha shartlarga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Ushbu muvofiqlik xabarnomasining haqqoniyligi, shuningdek muvofiqlik xabarnomasida ko'rsatilgan mahsulotning sifati va xavfsizligi yuzasidan ishlab chiqaruvchining qonun hujjatlariga muvofiq javob berishi to'g'risida tanishdim.

\_\_\_\_\_ (lavozim)

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

To'ldirilgan sanasi 20\_\_ y. “\_\_” \_\_\_\_\_

Amal qilish muddati 20\_\_ y. “\_\_” \_\_\_\_\_

Xabarnomaning orqa beti

### RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIGI (HISOBGA OLINGANLIGI) TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Sertifikatlashtirish organi - \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ tomonidan

(sertifikatlashtirish organining nomi, Davlat reyestri bo'yicha tartib raqami)

\_\_\_\_-son tartib raqami bilan ro'yxatdan o'tkazildi (hisobga olindi).

Sertifikatlashtirish organining

rahbari \_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

Izoh. Sifatli va xavfsiz mahsulot ishlab chiqarishning ta'minlanishini tasdiqlovchi qo'shimcha axborot mavjud bo'lganda ishlab chiqaruvchi ularni qo'shimcha ravishda keltirishi mumkin.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-avgustdagi 661-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.08.2019-y., 09/19/661/3571-son)

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan ma'lum qilish tartibi to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligi haqidagi xabarnomani ro'yxatdan o'tkazish**

**DAFTARI SHAKLI**

<b>T/r</b>	<b>Mahsulotning nomi</b>	<b>Xabarnoma yuboruvchining manzili</b>	<b>Xabarnoma kelib tushgan sana</b>	<b>Tashkilot rahbari</b>	<b>Ro'yxatdan o'tkazilgan sanasi va tartib raqami*</b>	<b>Ro'yxatdan o'tkazishning amal qilish muddati</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>

\* Ro'yxatdan o'tkazish tartib raqamini ko'rsatish namunasi: № UZ.SMT.XX.XXX.XXXXXX

*Oldingi tahrirga qarang.*

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)

*Oldingi tahrirga qarang.*

(6-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-apreldagi 122-son qaroriga  
7-ILOVA

*Oldingi tahrirga qarang.*

**Mahsulotni eksport qilishga ko'maklashish byurosi tuzilmasi**



\* Тошкент вилоятида — Олмалиқ, Бекобод ва Чирчиқ шаҳарларидаги синов ва сертификатлаштириш марказлари; Фарғона вилоятида — Фарғона вилояти ва Қўқон шаҳри синов ва сертификатлаштириш марказлари»;

*(7-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-apreldagi 122-son qaroriga  
8-ILOVA

*Oldingi tahririga qarang.*

### **Mahsulotni eksport qilishga ko'maklashish byurosi to'g'risida**

*(8-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

## **NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

*Oldingi tahririga qarang.*

1. Mahsulotni eksport qilishga ko'maklashish byurosi (keyingi o'rinlarda Byuro deb ataladi) "Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi" DK tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar sinov va sertifikatlashtirish markazlarida bittadan vakilga ega.

*(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

2. Byuro o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, "O'zstandart" agentligining qarorlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Byuro o'z faoliyatini "O'zstandart" agentligining boshqa tarkibiy bo'linmalari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

### **II. Byuroning vazifalari, funksiyalari va huquqlari**

4. Quyidagilar Byuroning asosiy vazifalari hisoblanadi:

eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha bepul maslahat xizmatlari ko'rsatish;

ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro va mamlakatlararo standartlar talablarini joriy etish va ularga erishish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ishlab chiqaruvchi korxonalariga ishlab chiqarilayotgan mahsulotni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha zarur axborotlar olish uchun axborot-maslahat yordami ko'rsatish;

standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha doimiy yangilab turiladigan ma'lumotnomani ishlab chiqish va joriy etish, keyinchalik uni "O'zstandart" agentligining Internet tarmog'idagi saytiga joylashtirish.

5. Byuro o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan tushgan masalalarni o'rganadi va ularga zarur axborotlar taqdim etadi;

mahsulot eksporti masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish yuzasidan bajarilgan ishlar to'g'risidagi materiallarni umumlashtiradi, tayyorlaydi va "O'zstandart" agentligiga taqdim etadi;

mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritishga doir mavjud muammolarni tahlil qiladi va ularni hal etish yuzasidan "O'zstandart" agentligiga takliflar kiritadi;

mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha dasturlar va tadbirlar tayyorlashda qatnashadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, o'lchovlarning yagonaligini ta'minlash, akkreditatsiyalash, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar bo'yicha xalqaro va mamlakatlararo talablarni tahlil qiladi va o'rganadi;

*(5-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, o'lchovlarning yagonaligini ta'minlash, akkreditatsiyalash, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va doimiy yangilab boradi;

*(5-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

6. Byuro quyidagi huquqlarga ega:

mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritishga doir zarur axborotlarni so'rab olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash, o'lchovlarning yagonaligini ta'minlash va akkreditatsiyalash sohasida xorijiy kompaniyalar va firmalar bilan o'z vakolatlari doirasida bevosita hamkorlik qilish;

*(6-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

zarurat bo'lganda, mazkur Nizomda nazarda tutilgan funksiyalarni bajarish uchun tegishli mutaxassislarini jalb qilish.

### **III. Byuro faoliyatini tashkil etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. Byuroga, bo'lim boshlig'i maqomiga tenglashtirilgan, "Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi" DK direktori tomonidan "O'zstandart" agentligi bosh direktori bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadigan va ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi.

*(7-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Byuro boshlig‘i:

*(7-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

Byuroning joriy faoliyatini tashkil etadi va amalga oshiradi;  
o‘ziga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun javob beradi;  
chiquvchi xat-xabarlarni imzolaydi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(7-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

o‘z vakolatlari doirasida, belgilangan tartibda boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

8. Byuroning xodimlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar sinov va sertifikatlashtirish markazlaridagi vakillari belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar sinov va sertifikatlashtirish markazlari direktorlari tomonidan, “Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi” DK direktori bilan kelishilgan holda, lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Byuroning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar sinov va sertifikatlashtirish markazlaridagi vakillari Byuro boshlig‘iga va tegishli sinov va sertifikatlashtirish markazi direktoriga bo‘ysunadi.

Byuro xodimlarining funksional vazifalari “Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi” DK direktori tomonidan, Byuro boshlig‘ining taqdimnomasi bilan, belgilanadi.

*(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(9-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

10. Byuro boshlig‘i va Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar sinov va sertifikatlashtirish markazlari direktorlari mazkur Nizom bilan yuklangan vazifalarning zarur darajada va o‘z vaqtida bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

*(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 23-son, 473-modda)*

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-apreldagi 122-son qaroriga  
9-ILOVA

## **O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi 87-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021-y., 09/21/87/0134-son)*

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ba‘zi qarorlarini to‘liq yoki qisman o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash hamda ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 1998-yil 16-apreldagi 161-son qaroriga 2-ilovaning 3-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2004-yil 6-iyuldagi 318-son qarori 1-bandining uchinchi



**xatboshi** va qarorga 2-ilova (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2004-y., 7-son, 63-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2004-yil 5-avgustdagi 373-son **qarorida** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2004-y., 8-son, 77-modda):

a) 2-bandning **uchinchi xatboshi** va qarorga 2-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 2-bandning **to‘rtinchi—oltinchi xatboshi** tegishli ravishda uchinchi — beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

v) 3-banddagi “o‘rinbosarlari” va “lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar” so‘zlari tegishli ravishda “o‘rinbosari” va “lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi to‘g‘risidagi **nizomda** (3-ilova):

1-bandning **birinchi xatboshidagi** va 7-bandning **ikkinchi xatboshidagi** “standartlashtirish” so‘zidan oldin “texnik jihatdan tartibga solish” so‘zlari qo‘shilsin;

7-bandning **ikkinchi xatboshidagi** va 8-band “a” kichik bandining **birinchi xatboshidagi** “Standartlashtirish to‘g‘risida” so‘zlaridan oldin “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida” so‘zlari qo‘shilsin;

8-bandning “a” **kichik bandiga** quyidagi tahrirdagi ikkinchi — oltinchi xatboshilar qo‘shilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi loyihalari bo‘yicha umumlashgan takliflar kiritadi;

o‘z vakolati doirasida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus reglamentlarni ishlab chiqish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ushbu reglamentlarni bekor qilish to‘g‘risida takliflar kiritadi;

o‘z vakolati doirasida umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi”;

8-band “a” kichik bandining **ikkinchi—oltinchi xatboshilari** yettinchi — o‘n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

**10-bandga** quyidagi tahrirdagi to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar qo‘shilsin:

“texnik jihatdan tartibga solish sohasida ekspert komissiyani tashkil etish;

o‘z vakolati doirasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertiza qilish;

o‘z vakolati doirasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ushbu reglamentlarni bekor qilish”;

10-bandning **to‘rtinchi—o‘n sakkizinchi xatboshilari** yettinchi — yigirma birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

13-bandning **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Bosh direktorning bir nafar o‘rinbosari bo‘ladi. Bosh direktorning o‘rinbosari maqomiga ko‘ra vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi”.

“O‘zstandart” agentligining bosh direktori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. “O‘zstandart” agentligi bosh direktorning o‘rinbosari belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi”;

**14-banddagi** “o‘rinbosarlari” so‘zi “o‘rinbosari” so‘zi bilan almashtirilsin;

**15-bandda:**

to‘rtinchi xatboshidagi “o‘z o‘rinbosarlarining vakolatlarini belgilaydi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi” va “o‘z o‘rinbosarlari” so‘zlari tegishli ravishda “o‘z o‘rinbosari vakolatini belgilaydi” va “o‘z o‘rinbosari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘qqizinchi xatboshidagi “standartlashtirish” so‘zidan oldin “texnik jihatdan tartibga solish” so‘zlari qo‘shilsin;

16-bandning birinchi xatboshidagi “uning o‘rinbosarlari” so‘zlari “uning o‘rinbosari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” (O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish tartib-taomillari soddalashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2006-yil 6-apreldagi O‘RQ-31-son Qonuni) 2006-yil 14-sentabrdagi 194-son qaroriga ilova 1-bandining “b” kichik bandi (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 9-son, 66-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(6-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi 348-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.04.2019-y., 09/19/348/3006-son)*

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 18-son, 178-modda; 2012-y., 38-son, 436-modda; 2013-y., 2-son, 24-modda; 2014-y., 45-son, 548-modda; 2015-y., 42-son, 534-modda; 2016-y., 24-son, 290-modda; 2017-y., 23-son, 473-modda, 28-son, 652-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.09.2018-y., 09/18/759/2026-son, 25.04.2019-y., 09/19/348/3006-son, 11.08.2019-y., 09/19/661/3571-son; 18.02.2020-y., 09/20/89/0179-son; 01.02.2021-y., 09/21/43/0071-son, 22.02.2021-y., 09/21/87/0134-son)*

ПОСТАНОВЛЕНИЕ  
КАБИНЕТА МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**О ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ МЕРАХ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПРОЦЕДУР  
СЕРТИФИКАЦИИ И ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА**

